

**KREDIT TIZIMINING HOZIRGI BANK TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA BANKLARNING YANGI RIVOJLANISH YO'LIDAGI O'RNI**

**To'ychiyev Izzatbek Dilshod o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti*

*“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 2- bosqich talabasi*

**Salohiddinov Mirjamil Shodibek o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti*

*“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 2- bosqich talabasi*

**Tashpulatovna Laylo Maratovna**

*Ilmiy rahbar:*

*Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti*

*“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası mudirasi*

**Annotatsiya:** Bu maqola kredit tizimining bank tizimidagi ro'li haqida. Siz o'qish davomida bankning kredit tizimi bilan va kredit tizimisiz rivojlanish yo'lini ko'rishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** kredit reytingi, kreditni qaytarish qobilyati, xarakter, shaxsiy budjeti, kapital, garov, moliyaviy holati, ssuda, Islom moliyasi

Kredit – bu bo'sh bo'lgan mablag'larni, bir sohani rivojlantirish uchun, ssuda fondi shaklida jismoniy va yuridik shaxslarga muddatli qaytarish sharti bilan qarzga berish. Bu muddat davomida qarzga belgilangan miqdorda foiz qo'shilib boradi. Uch xil muddatli kreditlar bor qisqa(1 yil), o'rta ( 1-5 yil), uzoq (6 yildan ko'p) . Kredit shakllarga ko'ra bir nechta turga bo'linadi: tijorat, bank, davlat, iste`mol, xalqaro, ipoteka.

1-jadval.

Jami kredit	<b>391 109</b>
<b>Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit</b>	<b>102 234</b>
Ipoteka kreditlari	46 822
Mikroqarzlar	14 783
Iste`mol kreditlari	24 158
Ta'lim kreditlari	2 194
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	14 246
Boshqa kreditlar	31
<b>Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit</b>	<b>288 875</b>

Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	272 484
Lizing va faktoring	1 589
Banklararo kreditlar	978
Mikrokreditlar	8 996
Sindisyalashtirilgan kreditlar	4 829

Manbaa- "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki" rasmiy sayti

1-jadval. Bu O'zbekistonning 2022- yil kredit hisobi boyicha bayonoti. Har bir sohaga ajratilgan summa mlrd.da hisoblangan. Bu jadvalga ko'ra ikki yonalishni ajratib ko'rsatsak bo'ladi: 1. Ipoteka krediti- jismoniy shaxslar uchun sohani rivoji yolida qo'yilgan katta qadam. 2. Kredit tashkiloti bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar- firmalar faoliyatini yo'lga qo'yish va yanada rivojlantirish uchun foydali kreditlar.

Kredit ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mablag'larni kapital qo'yishning eng foydali va istiqbolli yo'nalishlarida to'plash imkoniyatlari yuzaga keltiradi. Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida kreditlashning ma'lum qoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda "5 «C» lar qoida"si deb yuritiladi. "5 «C» lar qoida"si ga asosan har bir qoida asosida kreditni qaytara olish qobilyati tekshiriladi.

**Harakter**- qarz oluvchining harakterini baholash.

**Sig'im**- kreditni moliyaviy kirimlarga nisbatan qaytara olish qobilyati.

**Kapital**- qarz oluvchining sarmoyasi yetarliligi.

Holatlar – kredit oluvchining iqtisodiy ahvoli va biznesi rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

**Garov**- garovga qo'yiladigan buyum, ko'chmas mulk.

Kredit olishda muhim ro'l o'ynaydigan yana bir sifat bor: **kredit reytingi**.

**Kredit reytingi** – qarz beruvchilar uchun qarz oluvchilarning qaytara olish qobilyatini ko'rsata oladigan hujjat turi hisoblanadi. Kompaniyalar va hukumatlar uchun kredit reytinglari S&P Global, Moody's yoki Fitch Ratings kabi kredit reyting agentliklari tomonidan hisoblanadi. Standard & Poor's xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning kredit reytingi barqaror prognozli BB- darajasida baholaydi. Umuman olganda, kredit reytingi suveren jamg'armalar, pensiya jamg'armalari va boshqa investorlar tomonidan O'zbekistonning kreditga layoqatliligini baholash uchun qo'llaniladi va bu mamlakatning qarz olish xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Hisob-kitob to'lovidan qanchalik ortda qolganligingiz, kechiktirilgan to'lovlarni ko'rsatadigan hisoblar soni va siz hisobni joriy qilgan-qilmaganligingiz barcha omillardir. O'z vaqtida to'lovlar soni qancha ko'p bo'lsa, bali shunchalik


yuqori bo'ladi. Har safar to'lovni o'tkazib yuborganida, baliga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Bu iqtisodiyotni kredit yo'li bilan rivojlantirishni bir ko'rinishi va endi kreditsez ham qanday sarmoyalashtirishni ko'ramiz.**

Bu sohaning eng rivojlangan turi "Islom banki" hisoblanadi. Bu bank turi shariat qoidalariga asoslangani uchun foizli kreditni taqiqlaydi va o'z yolini ishlab chiqqan. Murobaha, Mushoraka va boshqa turdagi shartnomalar bankning faoliyatini olib boradi. Bu shartnomalarga ribo(foiz) qo'shilmaydi va yana bir foydali tomoni shundaki, zararli bizneslarni moliyalashtirmaydi. Ijarachi qarzni vaqtida to'lay olmagan hollarda, kechiktirilgan pul xayriya tashkilotiga o'tkaziladi. Bu bank turi dunyo bo'ylab ko'plab muvoffaqiyatlarga erishganiga qaramay, bizning mamlakatimizda ochilmagan. Ammo, davlatimizdagi ayrim banklar bilan shartnoma tuzib kichik bo'lim sifatida ish yuritishadi. Shu sababli hamma turdagi shartnomalar tuzilmaydi. Bu bank har bir davlatda alohida bank sifatida faoliyat yuritishiga qaramay, banklarning uyushmasi bor. Bu bankning yillar davomidagi statistikasini ko'rib chiqsak qanday qilib qisqa muddatda katta muvoffaqiyatga erishganini ko'rishimiz mumkin. Islom moliyasi xizmatlari yiliga 15-20 foizga o'sib bormoqda va yalpi aktivlari hozirgi kunda taxminan 2.88 trillion dollarga teng bo'lib, ularning 80% islom banklari (yoki islomiy darchalar), 15% sukuk (islom obligatsiyalari, qimmatli qog'ozlar), 4% islom investitsiya fondlari va 1% *Takoful* (Islom sug'urtasi) hissasiga to'g'ri keladi. Bu banklar nazorat qiladigan aktivlarning umumiy miqdori taxminan 200-500 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Statistik ma'lumotlar bu banklarda yiliga 10-15% o'sish sur'ati mavjudligini ko'rsatmoqda

2-jadval.

## Islamic Finance Assets Growth (2014 - 2020, USD Billion)



Source: Refinitiv as of June 30, 2022. Past performance is no guarantee of future results. Please see the end for important legal disclosures.

2-jadval. Islom moliyasining yillik sarhisobi. Bankning yillik daromadi oshib bormoqda va kelajak borasidagi rejalar ham shuni ko'rsatmoqda. 2025-yilda umumiy aktivlarni 4,940 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu bankning kredit muddati tugasa va qarz qaytarilmasa, qolgan pul xayriya tashkilotiga o'tkaziladi. Shuning uchun bank ijara berishdan avval ijarachini yaxshi o'rganib chiqadi. Islom bankinging tavakkalchilikni tekshiruv tizimi ham yaxshi darajada rivojlangan. Bu shartnomalar imzolanishidan avval tavakkalchiligi yaxshilab o'rganiladi. Bu 6 bosqichda amalga oshadi.

1. Kredit tavakkalchiligi
2. Sheriklikka kirishdan kelib chiqadigan tavakkalchilik
3. Bozor tavakkalchiligi
4. Majburiyatlarni bajara olish tavakkalchiligi
5. Pulni qaytara olish tavakkalchiligi
6. Xatolar va muvoffaqiyatsizliklar tavakkalchiligi

### FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR:

1. "bank, kredit va moliya" kitobi.
2. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/commercial-lending/5-cs-of-credit/>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom\\_bank\\_ishi\\_va\\_moliyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_bank_ishi_va_moliyasi)
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit>
5. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki" rasmiy sayti